

Date: 5th June-2025

YERGA OID NIZOLAR HUSUSIYATLARI

Urinova Zaynabxon Tojiddinovna

FIB Uchqo'rg'on tumanlararo sudi sudyasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerga oid nizolarni ko'rishda taalluqlilikning masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yer, nizo, taalluqlilik, sud, hokimiyat, davlat, moddiy, hudud, huquq, maqom, vakolat.

Аннотация: в данной статье рассматриваются вопросы, имеющие отношение к рассмотрению земельных споров.

Ключевые слова: земля, спор, отношение, суд, собственность, государство, материальное, территория, закон, статус, власть.

Abstract: This article discusses issues related to the consideration of land disputes.

Keywords: land, dispute, relationship, court, property, state, material, territory, law, status, authorities.

Yer inson uchun yashash asosi hisoblansa, yuridik ma'noda mulk hisoblanadi.

“Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyati va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi”.

Yuridik shaxslar, Er kodeksiga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq, mulk, doimiy foydalanish hamda ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lishi mumkin.

Jismoniy shaxslar, Er kodeksi va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq mulk hamda ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lishi mumkin.

Chet ellik fuqarolar va yuridik shaxslar, chet el investisiyalari ishtirokidagi korxonalar esa er uchastkalariga faqat ijara huquqi asosida ega bo'lishi mumkin (bundan Er kodeksi 18-moddasining ikkinchi va uchinchi qismlarida va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida nazarda tutilgan hollar mustasno).

Yuridik va jismoniy shaxslar qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan, o'ziga doimiy foydalanish (egalik qilish) yoki meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo'lgan er uchastkalarini qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan er uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda xususiylashtirishga haqli.

Barcha yerga oid munosabatlar qonun asosida tartibga solinadi. Jamiyat a'zolari doim ham yerga oid munosabatlarda huquqiy hulq atvorda bo'lavermaydi. Yer bilan bog'liq nizolar tizimli tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasida yerga oid nizolarni hal etish tartibi to'g'risida NIZOM asosida O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risida"gi Qonunga muvofiq davlat, jamoa korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, shuningdek, fuqarolar o'rtasidagi yerga oid nizolar tegishli sud tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda hal etiladi.



Date: 5th June-2025

Yer to'g'risidagi nizolar yyerlarga egalik qilish va foydalanish uchun berish, qaytarib olish, chegaralarini belgilash, yyerlardan foydalanish va muxofaza qilish qoidalarini buzishda kelib chiqadi. Yyerlarga egalik qilish va foydalanish jarayonida xar-xil holatlar yuzaga kelishi mumkin. Bunda yer munosabatlari subektlari (jumladan davlat organilari) harakatlari yoki ularning zarur bo'lgan harakatlarni asossiz bajarmasliklari yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, xamda davlatning huquqlarini buzilishiga olib keladi.

Masalan, bir subektga berilgan yer uchastkasini ikkinchi subektning o'zboshimchalik bilan egallab olishi va foydalanishi, belgilangan muddatda yer uchastkasini qaytarib byermaslik va xokazo. Shu xolatlar oqibatida yuzaga kelgan munozaralar yer to'g'risidagi nizolar deb ataladi.

Yer nizolarini kelib chiqish sabablarini shartli ravishda quydagilarga ajratishimiz mumkin, jumladan,

- yer berishda;
- yerdan foydalanish huquqini amalga oshirganda;
- yerni olib qo'yilganda;
- negator da'vo qilganda;
- yerlarni tartibga solishda;
- zararlarni qoplashda;

-o'z navbatida yer berishda yer nizolarini kelib chiqish asosini yer berish tartibi buzilganda xamda yer ajratish vaqtida foydalanuvchilarning chegaralari buzilganda kuzatish mumkin.

Yerdan foydalanish huquqini amalgan oshirishdagi yer nizolarining kelib chiqishi-subektlarning xo'jalik faoliyatiga aralashganda hamda yer mulkchilligi huquqiga to'sqinlik qilganda namoyon bo'ladi.

Yerni olib qo'yishda yer nizolari yer noqonuniy tortib olinganda va muddatidan avval foydalanish to'xtatilganda kelib chiqadi. Yerdan foydalanish huquqi buzilganda har qanday shaxs negator da'vo bilan buzilgan huquqlarini sudga murojaat qilib tiklashi mumkin. Yerlarni tartibga solishda yer nizolarining kelib chiqishi esa yerdan foydalanuvchilarning manfaatlari toptalganda yaqqol ko'rinadi.

Yer nizolarini kelib chiqishining zararlarni qoplash yuzasidan sabablari yer munosabatlari davrida zarar keltirilganda yuzaga keladi. Yer to'g'risidagi nizolarni o'z vaqtida va ob'ektiv tarzda bartaraf etish yerlardan samarali va oqilona foydalanish imkonini beradi, chunki bunda nafaqat yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning qonuniy huquqlari, balki davlatning ham yerga egalik huquqi himoya qilinadi.

Yerga egalik va undan foydalanish huquqi mamlakatimizda asosiy qomusimiz-O'zbekiston respublikasi Konstitusiyasi, qonunlar va qonunosti hujjatlar bilan kafolatlanib himoya qilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Mulkdorlar huquqlari va qonuniy manfaatlarining kafolatlari yanada kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" 2020 yil 23 dekabrda, "Yer uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish, shuningdek yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va



Date: 5th June-2025



qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2021 yil 16 avgustdagi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-sonli Farmoni² kabilar yer uchastkalarini ajratishning barcha uchun teng, shaffof va bozor tamoyillariga asoslangan tartibini joriy etish, yerga oid mulkiy va huquqiy munosabatlarda barqarorlikni ta'minlash, yerlarni muhofaza qilish, yer egalarining mulkiy huquqlarini kafolatlashga xizmat qiladi.

Yer to'g'risidagi nizolarni xal etish **umumiy yurisdiksiya** sudlari va **ma'muriy** sudlarda quydagi bosqichlardan tashkil topadi:

- a) nizoni qo'zg'atish;
- b) nizoni ko'rib chiqish;
- c) nizo bo'yicha qaror qabul qilish;
- d) qarorni bajarish.

Yerga oid nizolarni sudlar tomonidan hal etishda O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi normalarini to'g'ri qo'llanishini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Yer kodeksini tatbiq qilishda sud amaliyotida vujudga keladigan ayrim masalalar to'g'risida”gi 2006 yil 3 fevraldagi 3-sonli qarori hamda “Sudlarda yerga oid nizolarni ko'rishda qonunchilik xujjatlari normalarini qo'llashning ayrim masalalari to'g'risida”gi 2023 yil 20 noyabrdagi 28-sonli qarorlarining rahbariy ko'rsatmalari alohida ahamiyatga molik.

Yerga oig nizo bo'yicha ayrim holatlarni ko'rib o'tamiz.

Fuqarolik ishlari bo'yicha Kattaqo'rg'on tumanlararo sudining 2018 yil 1 avgustdagi hal qiluv qarori bilan D.Mirzaeva va D.Xolmurodovlarning uy-joyga kiritish to'g'risidagi da'vo arizasi qanoatlanitirilib, ular ikki nafar farzandlari bilan birgalikda D.Mirzaevaning foydalanishidagi nizoli er uchastkasida qurilgan uy joyga yashash uchun kiritib qo'yilgan.

Bunday holatda, nizolashilgan hokim qarori arizachining huquq va qonuniy manfaatlarini buzadi va unga to'g'ridan-to'g'ri daxl qiladi.

Shuningdek, arizachi o'zining huquq va qonuniy manfaatlari buzilganligi to'g'risida 2022 yil mart oyidan so'ng xabar topib, ma'muriy sudga 2022 yil aprely oyida belgilangan muddat ichida murojaat qilgan.

Shu sababli, kassasiya instansiyasi sudining 2022 yil 22 noyabrdagi qarori bilan sud qarorlari bekor qilinib, arizani qanoatlantirish haqida yangi qaror qabul qilingan³.

Yerga oid huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi nizolarni to'g'ri hal etilishi ta'minlanishi uchun, dastavval, yerga oid huquqiy munosabatlar deganda qanday munosabatlar tushunilishini anglab olishimiz lozim. Yerga oid huquqiy munosabatlar deganda - yer resurslarini boshqarish, uni qo'riqlash va himoya qilish, yuridik va jismoniy shaxslarga yer uchastkalari ajratish, yer uchastkalariga egalik qilish va foydalanish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy va boshqa ashyoviy munosabatlar tushuniladi.

² “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-sonli

³ Олий суд Раёсатининг 2023 йил 28 мартдаги РС-14-23-сонли қарорига 2-илова.

Date: 5th June-2025

Hulosa qilib aytishimiz mumkinki, yerga oid munosabatlar davlat muhofasasida hisoblanadi. Kelib chiqqan nizolarni hal etish sudlar orqali qonun asosida himoya qilinadi

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2020 yil 23 dekabrda⁴, “Yer uchastkalarini ajratish va ulardan foydalanish, shuningdek yerlarni hisobga olish va davlat yer kadastrini yuritish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2021 yil 16 avgustdagi qonun.
2. “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta'minlash, yerga bo'lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2021 yil 8 iyundagi PF-6243-sonli
3. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. // Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. - 464 б.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 21.10.2016 й. ПФ-4850-сон "Суд-хуқуқ тизимини янада ислоҳ қилиш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини ишончли ҳимоя қилиш кафолатларини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони.
5. Олий суд Раёсатининг 2023 йил 28 мартдаги РС-14-23-сонли қарорига 2-илова
6. Уринова Зайнабхон Тождидиновна. ЕРГА ОИД ОММАВИЙ НИЗОЛАРНИ МАЪМУРИЙ СУДЛАРДА ҚЎРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ. СУДЛАРДА МОДДИЙ ВА ПРОЦЕССУАЛ ХУҚУҚ НОРМАЛАРИНИ ҚЎЛЛАШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ: НАЗАРИЯ ВА АМАЛИЁТ. илмий конференция материаллари тўплами 2024 йил 2 май.
Ошибка! Залкада не определена.-455
7. Уринова Зайнабхон Тождидиновна. Ерга оид оммавий низоларни тааллуқлилиги. INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY. International online conference 143-148

⁴ O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida” 2020 yil 23 dekabrda PF-6243-sonli Farmoni